

CHET TILINI O'QITISHDA YOZUV KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Israilova Dilorom Shomaxamatovna

Toshkent davlat ozbek tili va adabiyoti universiteti

xorijiy tillar kafedrasi nemis tili o'qituvchisi.

+99893/539-26-55. Dilorom_76@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14741638>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodiy yozuvning chet tilini organishda tutgan orni va uning oquvchilarining til konikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Idjodiy yozuv, matn yaratish jarayonida yangi goyalar va tasavvurlarni ifodalash orqali oquvchilarining soz boyligini, grammatik bilimlarini va fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Maqolada ijodiy yozuvni orgatishning turli usullari, jumladan guruh ishlari, muammolarni hal qilish va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan misollar keltirilgan. Shuningdek, idjodiy yondashuvning talim jarayoniga qoshgan xissasi ham muhim ahamiyatga ega. Yozuv jarayonida oquvchilaring idjodiy faoliyatini ragbatlantirish, ularning tilni organishga bolgan ishtyoqini oshiradi hamda chet tilida yozuv konikmalarining shaklanishini samarali tarzda taminlaydi. Maqolada darsda idjodiy yozuv metodlarini qollash orqali chet tilini organish jarayonini yanada qiziqarli va samarali bolishga erishish mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Kalit sozlar: ijodiy yozuv, fantaziya, guruhda ishlash, qiziqarli vazifalar, yozuv konikmasi.

DEVELOPING WRITING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article analyzes the role of creative writing in foreign language learning and its importance in developing students' language skills. Creative writing increases students' vocabulary, grammatical knowledge, and thinking skills by expressing new ideas and imaginations in the process of creating a text. The article presents examples of various methods of teaching creative writing, including group work, problem solving, and the development of written speech. The contribution of the creative approach to the learning process is also important. Stimulating students' creative activity in the writing process increases their enthusiasm for language learning and effectively ensures the formation of writing skills in a foreign language. The article shows that by using creative writing methods in the classroom, the process of learning a foreign language can be made more interesting and effective.

Keywords: creative writing, fantasy, group work, interesting tasks, writing skills.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПИСЬМА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В статье анализируется роль творческого письма в изучении иностранного языка и его значение в развитии языковых навыков студентов. Творческое письмо расширяет словарный запас учащихся, их знание грамматики и навыки мышления за счет выражения новых идей и видений в процессе создания текста. В статье представлены примеры различных методов обучения творческому письму, включая групповую работу, решение проблем и развитие письменной речи. Также важен вклад творческого подхода в процесс обучения. Поощрение творческой активности учащихся в процессе письма повышает их энтузиазм к овладению языком и эффективно обеспечивает формирование навыков письма на иностранном языке. В статье показано, что процесс изучения иностранного языка можно сделать более интересным и эффективным, используя приемы творческого письма на занятиях.

Ключевые слова: творческое письмо, фантазия, групповая работа, интересные задания, навыки письма.

Kirish: Ijodiy yozuv uzoq tarixga ega bolib, u AQShda 19 asr ortalarida paydo bolgan va universitetlarda asosan adabiyotshunoslik seminarlarida otkazilgan. Germaniya 1970-yillardan beri bunga etibor qaratmoqda. Ijodiy yozuv (ingl. creative writing) - matn yozishni ijodiy jarayon sifatida tushunadigan kontseptsiya. Biz yozishni har bir kishi organishi mumkin bolgan hunarmandchilik deb bilamiz. Ijodiy yozishning koplab usullari mavjud. Bular ijodkorlik texnikasi bilan chambarchas bogliq. [1] Eng keng manoda, ular ijodiy yondashuvlar bolib, ular matn yaratishda yordam beradi. Chet tilini organishda oqib va eshitib tushunish, fikrlab yozish va gapirish bir-birini toldiruvchi, ozaro bogliq bolgan kognitiv jarayonlardir. Ushbu konikmalarni egallah shet tilini organishda asosiy talimning markaziy jihatni hisoblanadi. Ular nafaqat talim olish jarayonida konikmalarni egallahning muhim sharti, balki oz bilim darajasini yanada rivojlantirish va institutsional kontekstdan tashqarida ijtimoiy va madaniy hayotda ishtirok etish uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ijodkorlik deganda asta sekinlik bilan, samarali, ijodiy va foydali yutuqlarni amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Ijodkorlik - bu muammolarga xayoliy, oziga xos yondashuv orqali yangi goyalarni ishlab chiqishdir. “Ijodiy Yozish o’quvchining so’z va muloqot vositalarini

rivojlantiradi. Yozishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun erkin matnlar yozishni vazifa qilib berish orqali talabalar yangi narsa yaratadilar va tasavvur, fantaziya kuchlarini faollashtiradilar.

Bu ularning yozish qobiliyatini oshiradi, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlanadi. Matnlar tuzish o'quvchining so'z boyligini va grammatik bilimlarini boyitadi, chunki so'zlar qurilish materiallari kabi birlashib, jumla va matn hosil qiladi.” [2. 23-bet]

Asosiy qism: Hozirda chet tilini o'rganishda og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish asosiy o'rinni egallab, yozuv ko'nikmasini rivojlantirish talabalar uchun biroz zerikarli jarayon bo'lib, kam ahamiyat berilmoqda. Chet tili didaktikasining umumiyligi maqsadi kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish. Bu albatta yozishni qo'llab -quvvatlashga ham tegishlidir.

“Yozuv konikmasi” atamasi mazmunli, tushunarli va oziga xos matn yozish qobiliyatini bildiradi. “*Uzoq vaqt davomida til o'rgatish bo'yicha tadqiqotlarda ham, chet tili didaktikasida ham ikkinchi til sifatida organuvchilar uchun yozish konikmasinini rivojlantirishga unchalik e'tibor berilmadi.* [3. 228-bet]. Biroq, nemis tilida yaxshi rivojlangan yozish konikmalarini shakllantirish yuqori malakali ishlarni egallah uchun muhimdir. Yozma til konikmalariga talab ortib borayotganligi sababli, yozish kundalik ish hayotida asosiy malaka hisoblanadi. Til organish jarayonida ogzaki nutq, oqish va yozuv bilan kop ishslashga togri keladi. Bunda talabalar ogzaki va yozma til ortasidagi farqni bilishi va farqlay olishi kerak. Yozish malakalarini rivojlantirish talablariga javob berish uchun oz matnni yozish, fikrlash va qayta korib chiqishni ozlashtirishlari kerak. Ular ogzaki nutqdagi qaraganda oz xatolarini yozmada korib, organib eslab qolishlari ham oson boladi. Yozish egallangan bilimni ishga solishni talab qiluvchi faoliyatdir. Ogzaki tildan yozma tilga otishda kopincha muammolar tezda kozga tashlanadi, chunki yozma matnlar yuqori darajadagi togrilik va aniqlikni talab qiladi.

Tilshunos Bekker-Mrotzek yozishda koproq hamkorlik qilishni va yozishni jamoaviy ish sifatida korishni taklif qiladi. “*Talabalar birgalikda matnlarni rejalashtirish, shakllantirish va qayta korib chiqish orqali yoki ular ustida birin-ketin ishslash orqali organadilar. Masalan, yozma konferentsiyada: Talaba oz matnni yozadi va bu birinchi loyihami boshqalar bilan mazmuni, uslubi, imlo xatolarini muhokama qiladi. Keyin u oz masuliyati bilan matnni qayta korib chiqadi va oqituvchiga topshiradi. Bu nafaqat jamoada ishslash qobiliyatini kuchaytiradi, balki yozuvchilar va uni oquvchilar ortasidagi nuqtai nazarni ozgartirishga yordam beradi.*” [4. 200-bet]

Birgalikda yozish qo'rquvdan holi bo'lib, yozuvchi to'siqni oson olib tashlaydi va bu talabaga ko'proq o'ziga ishonchini oshiradi. Shuning uchun ham talabalar guruhlarga bo'linib

yozishni yaxshi ko'radilar. Ular o'z fikrlarini ifoda etish uchun qaysi so'z va qaysi grammatik shakl eng mos kelishini muhokama qilishadi.

"Guruhda yozish ham hayajonli ham faollikni oshiruvchi qizg'in jarayon va yozishdagi to'siqni yengillashtiradi. O'quvchilar darsda ijodiy yozish imkoniyatiga ega bo'lsalar, har doim ilhomlanadilar va bundan zavqlanadilar, egallagan so'z boyliklarini ishlatishga harakat qiladilar, ijodiy yozish nemis tili darslarini boyitadi va o'zgartiradi" [2. 24-bet].

Yozuv mahsulotiga emas, balki yozish jarayoniga koproq etibor qaratish kerak. Sinfda yozish vazifalari hali ham koplab oquvchilar uchun salbiy manoga ega, chunki yozish jarayoni kopincha tizimlashtirilmagan va "dialog yozing" kabi umumiy korsatmalar bilan qollaniladi. Sinfda maqsadli yozishni targib qilish, oquvchilarni kommunikativ va kundalik mavzularni yoritishga undovchi vazifalarini berish, shuningdek, chet tilida yozish konikmalarini rivojlantirishda mos yozuv vositalari orqali qollab-quvvatlash va ragbatlantirishga harakat qilishi kerak.

Lekin yozish jarayonini zerikarli holga aylantirib qoymaslik uchun oqituvchi qiziqrli vazifalarni ishlab chiqishi, izlab topishi kerak boladi. Albatta bu jarayonda oquvchining yoza olish qobiliyati va osha mavzuga bolgan qiziqishini ham hisobga olishi kerak. Ijodiy yozishning turli usullari mavjud. Keng ma'noda, bu miya xujumiga ijodiy yondashuvlar bo'lib, ular matn yaratishga yordam beradi. Maqsad - yozishdagi to'siqlarni yo'q qilish va matnlarni yozishda ijodkorlikka erkinlik berishdir. Bunga ayrim vazifalarni misol tarzida taklif qilish mumkin.

Masalan:

-Yozish orqali baxs-munozara boshlashni shakllantirish: Oqituvchi birorta muhim mavzuda bitta jumla beradi. Guruh 2 ga bolinadi va berilgan gapga doir 1- guruh to'rtadan osha gapdagi fikrni qollab-quvvatlovchi dalillar, 2- guruhdagi har biri to'rtta bunga qarshi dalillar keltiradilar. Keltirilgan dalillarning xar biri kartochkalarga yozilib doskaga osiladi va ular ikkala guruh tomonidan oqilib, muhokama boshlanadi.

-tilni shakllantirish jarayoni sifatida: Bunda sozlar, fellar, yoki rasmlar beriladi. Oquvchilar ular ishtirokida leksik-grammatik jihatdan kichik gaplar, rasmlarga izohlar tuzadilar. Natijada olingan mahsulot matn bolib, u "ma'no" va "muvofiglikka" ega bolishi kerak.

-Yozish grammatikani takrorlash va mustahkamlash sifatida: Yani gaplarni bir qismi beriladi (masalan ergash gaplar), qolgan qismini oquvchilar oylab davom ettiradilar va gapdagi tartibi, turlanish, tuslanishlarga qatiy rioya qilishlari talab etiladi.

-Muammoni hal qilish sifatida matn yozish: Oquvchilarga muammo qoyilgan tayyor matn beriladi.

U e-mail, shikoyat xati, yoki gazeta-jurnallardan olingan kundalik hayotda uchragan muammoli kichik xabarlar, matnlar bolishi mumkin. Oquvchilar yechim topib, unga javob xati yoki matn yozadilar.

-Yozish fikrlash vositasi sifatida: Shu manoda yozishga ijodiy vazifa yuklanadi. Bunda biror bir hayotiy mavzuda kichik insho yozishadi, yoki uning salbiy ijobjiy taraflarini yoritib oz fikrlarini bildirgan kichik taqdimot matnlari yozadilar.

“Talabalarda bir qolipga solingen grammatik va leksik mashqlarni (ya’ni, nuqtalar o’rniga qo’yish, kombinatsiya qilish, sinonim-antonimini topish va hakazolar) bajarishdan ko’ra ko’proq ijodiy fikrlashga undovchi, erkin muloqot va bahslashuvga chorlovchi vazifalarni bajarishga qiziqish kuzatiladi. Shularni hisobga olgan holda, talabalarga matndagi qahramonlarga o’z fikr munosabatlarini bildirish, muammolarini yechishga yordamlashuvchi maslahatlar berish, berilgan xatlarga javob yozish kabi vazifalar topshirilsa ularning faolliklarini oshirishga, darsning qiziqarli va jonli o’tishiga erishish mumkin bo’ladi.” [5.120-bet]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu kabi vazifalarni berish orqali oquvchilardagi egallangan soz boyligini ishga tushirishga, ularni bir sidra takrorlanib mustaxkamlanishiga, soz va jumlalardan togri foydalanishlariga, imlo va grammatik jihatdan etiborli bolishlariga, fikrlash doiralarini kengaytirishga erishish mumkin. Yozish konikmasi salmoqli kuchga ega. U ijodiy yozuv orqali amalga oshirilsa organuvchiga koproq quvonch va kayfiyat bagishlaydi. Agar o’qituvchi oquvchilarning egallagan yozuv konikmasini maqsadli mashg’ulotlar bilan rivojlantirsa, avtomatik ravishda ularning fikrlash qobiliyatlarini ham kengaytiradi. Oquv jarayonida yangi metodlarni qo’llash, o’yinlardan foydalanish, biroz ijodiy yondoshish, darslarni samarali borishini, o’quvchilarning chet tilini o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

REFERENCES

1. Xalq sozi» gazetasi, № 174 (7373), 24.08.2019. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 avgust kuni xalq talimi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod manaviyatini yuksaltirish masalalariga bagishlangan videoselektor yigilishi.
2. D. Israilova “ Chet tili darsida ijodiy yozuvning ahamiyati”. DaF - Unterricht im digitalen Zeitalter 2021.

3. Grießhaber. “Schreiben in der Zweitsprache Deutsch. Anforderungen und Besonderheiten.“ 2008
4. Vivien Lukas „Lese-und Schreibkompetenz. Entwicklung und Förderung“ Term Paper, 2020
5. “Chet tili darsida yozuv ko’nikmasini rivojlantirish”. D.Sh. Israilova. ToshDShI
6. “O’quv jarayonida innovatsiyalar: hozirgi holat va rivojlanish yo’llari”. –Toshkent, 2011.
7. „Schreibkompetenz entwickeln und beurteilen“ 9. Auflage. 2018
8. <https://www.textbroker.de/kreatives-schreiben>